

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

15. Najmiddinova M.N., (2024), “Linguocultural and linguopragmatic features of the concept of "hospitality" in English and Uzbek”, International conference philology, methodology, translation studies: current issues of modern science. <https://doi.org/10.2024/1xm0b673>.

16. Najmiddinova M.N., (2024), “Linguoculturalogical features of proverbs on “hospitality” in English and Uzbek”, Tamaddun nuri / The light of civilization, ISSN 2181-8258, 10(61),74. <https://jurnal.tamaddunnuri.uz/index.php/tnj/article/view/972>

17. Najmiddinova M.N., Qahramonova M.U., (2025), “Innovation in language teaching, learning and assessment”, Results of National Scientific Research International Journal, Volume 4| Issue 3 Researchbib 9.1, ISSN: 2181-3639, 132-140. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15111294>

18. Оudin Т. (1989). Языковой перенос: Межъязыковое влияние в изучении языка. Кембриджский университетский пресс.

19. Свон, М., & Смит, Б. (2001). Английский для изучающих: Руководство для преподавателей по интерференции и другим проблемам. Кембриджский университетский пресс.

SINTAKSIS TERMINOLOGIYASIDA GIPONIMIYA VA EKVONIMIYA HODISALARINING O‘ZARO ALOQASI

Olimova Sabina Utkirovna

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada o'zbek immanent tilshunosligi terminologik tizimining mazmun rejasi bilan bog'liq funksional-semantik xususiyatlari o'rganilib, unda sintaksisning zamonaviy yo'nalishlari terminologik tizimlari masalalari ko'rib chiqiladi.*

KALIT SO'ZLAR: *sintaksis, ibora sintaksisi, gap sintaksisi, matn sintaksisi, teng bog'lovchi, matn, mikro matn, makro matn.*

Sintaksis, bir tomondan, so'z shakllarining bog'lanish qoidalarini, ikkinchi tomondan, tarkibida bu qoidalar ro'yobga chiqadigan bir butunlikni gapni o'rganadi. Anglashiladiki, morfologik birlik bo'lgan so'zning shakli ham sintaksis uchun ahamiyatlidir. Lekin faqat so'zning boshqa shakllari bilan aloqasi va sintaktik birlik ichida uning bir qismi sifatida bajaradigan vazifasi nuqtayi nazaridagina sintaktik qimmatga ega bo'ladi. Ushbu predmetlarni o'rganadigan bo'limda shu predmetlar bilan bog'liq terminlar ham mavjud. Ular jins-tur va tur-tur munosabatiga kiradi hamda gipero-giponimik, ekvonimik aloqadorlikni namoyish qiladi. Dastlab, bunday xususiyatni sintaksis termini misolida ko'rib o'tamiz.

Biz terminlar tizimida giponimiya va ekvonimiya hodisalarini izohlashda quyidagi ilmiy adabiyotlardagi sintaksisga oid terminlarga etibor qaratdik. Grammatikaning sintaksis (yun.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

suntaxis - tuzish) bo'limida o'zaro bog'lanishli nutq qurilishi o'rganiladi. Bu bo'lim ikki asosiy qismdan so'z birikmasi sintaksisi va gap sintaksisidan iborat. Sintaksis termini gipreonim bo'lsa so'z birikmasi sintaksisi, gap sintaksisi terminlari uning giponimlarini tashkil etadi.

Sintaksis termini o'rganish obyektidan kelib chiqib, so'z birikmasi sintaksisi, gap sintaksisi, matn sintaksisi terminlari bilan jins-tur munosabatiga kiradi va bu terminlarning giperonimi bo'ladi. Tur maqomidagi terminlar shu giperonimning ichiga kirishi, oidligi belgisiga ko'ra giponimlariga aylanadi. Mazkur terminlar bir-biri bilan gorizontaal aloqaga kirishadi va tur-tur munosabatida bo'ladi. Bunday munosabatda ular differentsial xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Xususan, so'z birikmasi, gap va matnning bog'lanish xususiyatlari o'rganilishiga ko'ra ekvonimik munosabatga kirishib, o'zaro munosabatlarida ekvonimiya hodisasini namoyon qiladi. Ekvonimik munosabatdagi so'z birikmasi sintaksisi, gap sintaksisi, matn sintaksisi terminlari o'zaro ekvonimlarga aylanadi. Sintaksis terminining so'z birikmasi sintaksisi, gap sintaksisi, matn sintaksisi terminlarining jins-tur munosabati bilan so'z birikmasi sintaksisi, gap sintaksisi, matn sintaksisi terminlarining tur-tur munosabati o'rtasida giponimiya va ekvonimiya hodisalari kesishadi.

O'z navbatida, gap sintaksisi termini giperonim bo'lishi mumkin. Xususan, jins maqomida keladi. uning tur maqomidagi terminlari sodda gap sintaksisi, qo'shma gap sintaksisi terminlari bo'ladi. Sodda gap sintaksisi termini ostida bir grammatik asosdan iborat birliklar, qo'shma gap sintaksisi termini ostida ikki grammatik asosdan iborat birliklar o'rganilishi bilan tur-tur munosabati farqlanadi va ular ekvonimlarga aylanadi. Giponim va ekvonimlarning tutashishiga shu tur-tur munosabati xizmat qiladi.

So'z va gaplarning orasidagi bog'lanish sintaktik aloqa deyiladi. U ikki turli bo'ladi: teng bog'lanish, yoki teng aloqa; tobe bog'lanish, yoki tobe aloqa. Teng bog'lanish sintaktik jihatdan teng huquqli bo'lgan, biri ikkinchisiga bo'ysunmagan so'zlarning yoki gaplarning aloqasidir. Bunda teng aloqadagi so'zlar yoki gaplar o'zaro teng bog'lovchilar, teng bog'lovchi vazifasidagi yuklamalar, sanash ohangi (ohang) yordamida munosabatga kirishadi. Teng bog'lanish (teng aloqa) va tobe bog'lanish (tobe aloqa) sintaktik aloqa giperonimining giponimlari maqomida keladi. Shu munosabatdoshlikda (teng bog'lanish, tobe bog'lanish; teng aloqa, tobe aloqa) ekvonimiya hodisasi yuz beradi.

So'zlar orasidagi tobe bog'lanish ikki xil bo'ladi: predikativ tobe bog'lanish va nopredikativ tobe bog'lanish. Ega va kesimning bog'lanishi predikativ tobe bog'lanish hisoblanadi va bunday bog'lanishdan gap hosil bo'ladi. Tobe (ergash) bog'lanishning qolgan ko'rinishlari (aniqlovchi/aniqlanmish, to'ldiruvchi/to'ldirilmish, hol/hollanmish) nopredikativ tobe bog'lanish bo'lib, bunday bog'lanishdan so'z birikmasi yuzaga keladi.

Ega va kesim munosabatida ham, aniqlovchi aniqlanmish, to'ldiruvchi to'ldirilmish, hol hollanmish munosabatida ham bog'lanish mavjud. Lekin anglashilganidek ega va kesim bog'lanishidan gap hosil bo'lsa, bog'lanishning qolgan ko'rinishlarida esa so'z birikmasi hosil bo'lmoqda. Mana shu kabi munosabatdoshlikda predikativ tobe bog'lanish, nopredikativ tobe

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

bog'lanish tobe bog'lanish giperonimining giponimlari va ayni vaqtda ekvonimiya hodisasini yuzaga keltirgan. Shu o'rinda giponimlar ekvonimlar bilan birga sinkretlashgan.

Odatda, nutqda, gapda so'zlar ma'lum qonun-qoidalar asosida o'zaro ma'no va grammatik jihatdan bog'langan bo'ladi. Masalan, qiziqarli kitob, toqqa chiqmoq, tez o'qimoq kabi. Bunday juftlik bir butunlik hosil qilib, yaxlit, lekin o'z ichida qismlarga bo'linadigan bir butun tushunchani bildiradi. Ikki yoki undan ortiq mustaqil so'z va so'z shakllarning nopredikativ tobe aloqasi asosida birikishidan hosil bo'lgan bog'lama so'z birikmasi deyiladi. So'zlarning nopredikativ tobe bog'lanishi (tobe aloqa) uch xil bo'ladi: boshqaruv aloqasi, bitishuv aloqasi, moslashuv aloqasi.

Tobe so'zning hokim so'z talab etgan shaklda kelishi boshqaruv aloqasi deyiladi. Bunda boshqariluvchi so'z bosh va qaratqich kelishigidan tashqari boshqa kelishik shaklini yoki ko'makchini olib keladi. Qaysi kelishik yoki ko'makchi bilan shakllanish boshqaruvchi so'zning ma'nosi, semantikasi bilan belgilanadi. Masalan: kitobni o'qimoq, qariyalarga g'amxo'rlik qilmoq, universitetda o'qimoq, ishdan qaytmoq, o'quvchilar bilan suhbatlashmoq va boshqalar. Boshqaruv ikki xil bo'ladi: kelishikli boshqaruv aloqasi va ko'makchili boshqaruv aloqasi.

Kelishikli boshqaruv aloqasida boshqariluvchi so'z ma'lum kelishik shaklida qo'llanadi: kattalarni hurmat qilmoq, toqqa chiqmoq kabi. Ko'makchili boshqaruv aloqasida boshqariluvchi so'z ko'makchi orqali shakllanadi: ukasi bilan kelmoq, telefon orqali gaplashmoq kabi.

Boshqaruv aloqasi, bitishuv aloqasi, moslashuv aloqasi tobe aloqa giperonimining giponimlaridir. Boshqaruv aloqasi, bitishuv aloqasi, moslashuv aloqasi ma'nolaridagi farqlanish ekvonimik munosabatlarni yuzaga chiqargan.

Kelishikli boshqaruv aloqasi, ko'makchili boshqaruv aloqasi boshqaruv aloqasi giperonimining giponimlari maqomida ekvonimik munosabatlarning hosil bo'lishiga sabab bo'lgan. Bog'li aloqa tushunchasi bilan bog'langan jins-tur, tur-tur munosabati boshqaruv terminida yana davom etadi. Xususan, boshqaruvning kelishikli yoki ko'makchili bo'lishi mumkinligi bu uch terminni yangi gipero-giponimik va ekvonimik munosabatga tortadi. Boshqaruv, kelishikli boshqaruv, ko'makchili boshqaruv terminlari o'rtasida bo'lgan jins-tur munosabatida boshqaruv termini giperonim, kelishikli boshqaruv, ko'makchili boshqaruv terminlari uning giponimlari bo'ladi. Keyingi ikki terminning lingvistik mohiyat-mundariyasi kelishikli bo'ladimi, ko'makchili bo'ladimi, baribir, boshqaruv aloqasiga mansubligi nuqtayi nazaridan bir giperonim - boshqaruv asosida birlashadi. O'z navbatida, ta'kidlash kerakki, kelishikli boshqaruv, ko'makchili boshqaruv terminlari bir-biridan kelishik va ko'makchi vositasida boshqarilishi bilan farq qiladi, bu differensial xususiyatlar terminlarning o'zaro ekvonimik munosabatga kirishishini ta'minlaydi.

So'z birikmalari hokim qismning qaysi so'z turkumidan ekanligiga ko'ra quyidagi turlarga ajratiladi: otli birikma, fe'lli birikma, sifatli birikma, ravishli birikma, modal so'zli birikma. So'z birikmasi giperonim bo'lsa, otli birikma, fe'lli birikma, sifatli birikma, ravishli birikma, modal so'zli birikma terminlari uning giponimlaridir.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

So'z birikmalari tuzilishiga ko'ra ham ikki xil bo'ladi: oddiy so'z birikmasi va murakkab so'z birikmasi. So'zshakl bilan so'z (leksema)ning yoki ikki so'zshaklning bog'lanmasi oddiy so'z birikmasi hisoblanadi: keng dala, tekisroq yo'l, tinchlikka da'vat qilmoq, davlatlarning hamdo'stligi, maktab hovlisi. Murakkab so'z birikmasida birikmaning qismlaridan biri yoki har ikkisi so'z birikmasi bilan ifoda etiladi. Masalan, mehnat qilishni sevadigan odam, odamlarga xayrixoh bo'lgan kishi kabi so'z birikmalarining tobe qismi ("mehnat qilishni sevadigan", "odamlarga xayrixoh bo'lgan") so'z birikmasi shaklida qo'llanib, hokim so'zga bitishuv yo'li bilan bog'langan. Bu o'rinda so'z birikmasi giperonim, oddiy so'z birikmasi, murakkab so'z birikmasi so'z birikmasining giponimlari bo'lib kelgan.

Sintaxisning asosiy mazmuni sintaktik aloqada aks etadi. Til birliklarining asosiy amali ham sintaktik aloqa bilan bo'ladi. Sintaktik aloqa yo'nalishiga ko'ra ikkiga bo'linadi: a) ikki tomonlama aloqa (koordinatsiya), b) bir tomonlama aloqa (subordinatsiya) Anglashildiki, jins-tur munosabatida sintaktik aloqa termini giperonim bo'ladi, uning giponimlariga ikki tomonlama aloqa (koordinativ aloqa), bir tomonlama aloqa (subordinativ aloqa) terminlari aylanadi. Giperonim termin bu yerda ikki giponim uchun umumiy xarakterli, giponimlar giperonimga mansub, uning ichki turlari. Bir tomonlama aloqa va ikki tomonlama aloqa terminlari tobelanib bog'lanishning yo'nalishiga asoslanib, bir-biridan farqlanadi. Shu farqlanish terminlarning ekvonimligi amalini ta'minlaydi, o'zaro ekvonimiya hodisasini yuzaga keltiradi.

Ma'lumki, tobe qismning qanday shaklda kelishi hokim qismga bog'liq bo'lgan aloqa bog'li aloqa deyiladi. Masalan, kitobni o'qi birikmasida tobe qism o'timli fe'ldan ifodalangan hokim qism talabiga muvofiq tushum kelishigida keladi. Bog'li aloqa uch turga bo'linadi: a) moslashuv; b) boshqaruv; v) bitishuv [Mahmudov, 1995: 22]. Mazkur iqtibos bizga giperonim va giponimlarni ko'rsatib bermoqda. Giperonim bog'li aloqa termini; giponimlar moslashuv, boshqaruv, bitishuv terminlari. Ushbu terminlar tobe va hokim qismlarning o'zaro bir-biriga bog'liqligiga ko'ra integral belgini namoyon qiladi. Shu xususiyat ularni jins-tur munosabatiga kiritgan, o'z giperonimga bo'ysundirgan. Giponimik terminlar o'zaro tur-tur munosabatiga tortilganda integral belgi rol o'ynamaydi, balki differentsial belgi sintaktik aloqaning asosini tashkil qiladi, terminlar bir-biri bilan ekvonimik munosabatdorlikda bo'ladi.

Sintaksisda o'rganiladigan asosiy sintaktik birlik gap hisoblanadi. Gap - kishilar nutqining eng kichik birligi bo'lib, u grammatik jihatdan tashkil qilingan, mazmun va ohang jihatdan nisbiy tugallikka ega bo'lgan so'zlar bog'lamasi yoki yakka so'zdir. Aloqa birligi bo'lmish gap fikrni ifodalash va shakllantirish birligi hamdir. Shunga ko'ra gap kommunikativ (aloqa qilish) va kognitiv (fikir ifodalash) vazifalarni bajaradigan nutq birligi sanaladi. Gapning mazkur xususiyatlari uni so'zdan va so'z birikmasidan farqlaydi. O'zbek tilida gaplar turli nuqtayi nazardan tasnif qilinadi: Ifoda maqsadiga ko'ra. Emotsionalikka ko'ra. Tuzilishiga ko'ra. Ifoda maqsadiga ko'ra va bu maqsad bilan bog'liq bo'lgan ohangga ko'ra gaplar darak, so'roq, buyruq gaplarga ajratiladi. Tuzilishiga ko'ra gaplar sodda va qo'shma bo'ladi. Gaplarning bunday bo'linishi ularning tarkibidagi predikativlik birliklarning soniga, miqdoriga asoslanadi.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

So'roq gaplar so'roqning xususiyatiga ko'ra uch turga bo'linadi: sof so'roq gaplar, ritorik so'roq gaplar, so'roq buyruq gaplar. Sof so'roq gaplar tinglovchidan so'roqqa javobni talab qiladi. Masalan: Kechagi maqola nima bo'ldi, Rahim aka? (F.Musajonov). Qishloq xo'jalik bo'limi shumi? (F.Musajonov). Ritorik so'roq gaplarda so'roq ichida uning javobi ham anglashilib turadi. Masalan: Dunyoda sizga ishongan, sizni jonidan aziz ko'radigan kishining yuziga oyoq bosishdan og'ir jinoyat bormi? (A.Muhiddin). So'roq-buyruq gaplar so'roq orqali buyruq jilvasini o'z ichiga oladi. Masalan: Aka, nega indamaysiz? (P.Qodirov). Uka, Murtazobekning o'zi qayerdaligini aytib berolmaysizmi? (O.Usmonov).

Gaplar emotsionallikka ko'ra ikki xil bo'ladi: his-hayajonsiz gaplar va his-hayajon yoki undov gaplar. Yuqorida keltirilgan xususiyatlariga ko'ra gap giperonimi dastlab quyidagi giponimlarni o'z ichiga oladi: sodda gap, qo'shma gap (tuzilishiga ko'ra); darak gap, so'roq gap, buyruq gap (ifoda maqsadiga ko'ra); his-hayajonli gap, his-hayajonsiz gap (emotsionallikka ko'ra). Bu giponimlar o'zaro farqlanib ekvonimlikni hosil qiladi. Xuddi shu holat so'roq gap giperonimining sof so'roq gap, ritorik so'roq gap, so'roq buyruq gap kabi giponimlarida ham ko'rish mumkin.

Gapda biror so'roqqa javob bo'lgan va o'zaro tobe bog'langan so'z yoki so'z birikmasi gap bo'lagi deyiladi. Gap bo'laklari ikki turga ajratiladi: bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklar. Gapning bosh bo'laklari ega va kesim bo'lsa, ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlovchi, to'ldiruvchi va hol tashkil etadi.

Sintaksisda gap bo'laklari masalasi alohida qimmatga ega. Gapning bosh bo'lagi bo'lgan kesim ifoda materialiga ko'ra (qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga ko'ra) ikki turga ajratiladi: fe'l kesim va ot kesim.

Kesim tuzilishiga ko'ra ham ikki xil bo'ladi: sodda kesim va tarkibli kesim.

1) sodda kesim yakka bir asosli fe'llar bilan ifodalangan kesimlar hamda bog'lamasiz kelgan ot kesimlardir. Sodda kesim ifoda materialiga ko'ra ikki xil: sodda fe'l kesim, sodda ot kesim.

a) sodda fe'l kesim tuslangan fe'l, ravishdosh, sifatosh bilan ifodalangan kesimdir. Masalan: Ot yiqilayotganda, Humoyun oyoqlarini uzangidan chiqarib egardan qumga sakradi. (P.Qodirov). Qalin qorlar erib, o'tlar ko'karib qoldi. (Ch. Aytmatov).

b) sodda ot kesim fe'ldan boshqa so'z turkumlari: ot, sifat, son, olmosh, ravish, undov so'z, modal so'z, shuningdek, fe'lning harakat nomi bilan ifodalangan kesimdir. Masalan: Yolg'onchi kishi har kim qoshida bebro'dir. ("Oz-oz o'rganib dono bo'lur") Keng-keng ko'chalari boru, lekin markazi tiqilinch. (P.Qodirov). Soyda tosh ko'p, terib chiqaraverasan. (P.Qodirov).

2) tarkibli kesim ikki va undan ortiq so'z shakllarining qo'shiluvidan hosil bo'lgan kesimdir. U doim yetakchi va yordamchi qismlardan tashkil topib, yetakchi qism asosiy ma'noni, yordamchi qism qo'shimcha ma'noni ifodalaydi. Ifodalanishiga ko'ra tarkibli kesim ham ikki xil: tarkibli fe'l kesim, tarkibli ot kesim bo'ladi.

a) tarkibli fe'l kesim fe'lning analitik shakli bilan ifodalanadi. Bunda o'zining leksik ma'nosini saqlagan fe'l yetakchi fe'l, qolganlari esa ko'makchi fe'l yoki to'liqsiz bo'lib, yetakchi fe'ldan.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

anglashilgan harakatning bajarilishi bilan bog'liq bo'lgan turli qo'shimcha ma'nolarni ifodalaydi. Yetakchi fe'l asosan ravishdosh shaklida bo'ladi. Masalan: Bu yumshoq, mulohazali odamga yotoqdoshlarning mehri oshib qolgan edi. (A.Muxtor). O'rmon ichidan qushlarning sayrashi... eshilib turadi. (P.Qodirov).

b) tarkibli ot kesim fe'ldan boshqa so'z turkumlarining bog'lama bilan birikishidan yuzaga keladi. Bunda tarkibli ot kesimning ot qismini ot, sifat, son, olmosh, ravish yetakchi qismini tashkil qiladi, yordamchi qismini esa bog'lama vazifasidagi "bo'lmoq", "sanalmoq", "hisoblanmoq", "tuyulmoq" kabi fe'llar, shuningdek, "edi", "ekan", "emish" to'liqsiz fe'li tashkil etadi.

O'zbek tilshunosligida eng ko'p muhokama qilingan gap bo'lagi kesim hisoblanadi. Mustaqillik davrida o'zbek tilshunoslari kesimni gapning markaziy bo'lagi sifatida tan oldilar. Kesimning gapni shakllantiruvchilik rolini aniq ko'rsatib berdilar. Bizningcha, kesim termini bilan bog'liq holatda gipero-giponimik hamda ekvonimik munosabatlar reallashadi. Jins-tur munosabatida kesim giperonim vazifasida kelganda unga ot kesim va fe'l kesim terminlari giponim bo'ladi. Teskari yo'nalishda talqin qilinganda ham ot kesimmi, fe'l kesimmi, baribir, kesim umumiy nomi ostida birlashadi. Biroq giponimlarning giperonimga munosabatida farqlanish sezilmasa-da, giponimlarning gorizontali yo'nalishdagi tur-tur munosabatida kesim vazifasidagi so'zning qanday turkumda ekanligi giponim maqomidagi terminlarni ekvonimga aylantiradi, mazkur terminlar tur-tur munosabatidagi farqli xususiyatlarida giponimlar bo'lib qola olmaydi. Giponimiya hodisasi o'rnida ekvonimiya hodisasi shakllanadi.

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari: to'ldiruvchi (vositali to'ldiruvchi va vositasiz to'ldiruvchi), aniqllovchi (sifatlovchi aniqllovchi, qaratqich aniqllovchi, izohlovchi aniqllovchi), hol (o'rin holi, payt holi, ravish holi, maqsad holi, sabab holi...); gapning ajratilgan bo'laklari qaysi gap bo'lagiga oid ekanligiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: ajratilgan to'ldiruvchilar, ajratilgan aniqllovchilar, ajratilgan izohlovchilar, ajratilgan hollar, ajratilgan aniqllovchilar yana ikkiga. bo'linadi: ajratilgan sifatlovchi, ajratilgan qaratuvchi kabi.

Shuni alohida ta'kidlashni istardikki, gipero-giponimik munosabatda giperonim va giponimlar o'rtasida hokim tobelik aloqasi ko'zga tashlanadi. Undan farqli ravishda tur-tur munosabatida ekvonimlar o'rtasida hokim tobelik aloqasi o'rnida teng munosabat amal qiladi. Ana shunday teng va tobe munosabatdagi to'ldiruvchi, aniqllovchi, hol terminlari tizimida ham giponimiya va ekvonimiya hodisalari tutashadi. Masalan, to'ldiruvchi giperonimining giponimlari bo'lgan vositali to'ldiruvchi va vositasiz to'ldiruvchi terminlari tur-tur munosabatida giponimligini yo'qotib, ekvonimga aylanadi. Aniqllovchi termini doirasida sifatlovchi aniqllovchi va qaratqich aniqllovchi terminlari o'zaro differentsiatsiyaga kirishib, ekvonimiya hodisasini namoyon qiladi.

Xullas, grammatika tizimi terminlari morfologiya va sintaksis terminlari vositasida giponimiya va ekvonimiya hodisalarini o'zlarida birlashtira oladi. Mazkur sohalar terminlarida ham jins-tur hamda tur-tur munosabatlari kesishuvi ro'y beradi. Bu vaqtda giponimiya tugab,

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

ekvonimiya boshlanadi. Giponimiyaning tugashi va ekvonimiya boshlanishida ularning sinkretlashuvi sodir bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуалиева З. Гипонимо-эконимические отношения в системе зоонимов. Saarbrücken: Lambert Academic Publishing, 2015.-С.24.
2. Абдурахмонов Ф. Қўшма гап синтаксиси асослари. Т.: Фан, 1958. – 327 б.
3. Асқарова М. Ҳозирги ўзбек тилида эргашиш формалари ва эргаш гаплар. -Т.: Фан, 1966.
4. Баскаков Н.А. Предложений в современном турецком языке. М: Наука, 1984. - 119 с.
5. Бердиалиев А. Семантико-сигнификативная парадигматика и синтагматические отношения в конструкциях сложноподчиненного предложения узбекского языка: Дисс. ... докт. филол. наук. Т.: 1989.-281 с.

ZAMONAVIY TA'LIM PEDOGOGIKASIDA ILMIY TADQIQOT METODLARINING O'RNI.

Yuldasheva Xadichaxon

Toshkent Gumanitar Fanlar Universiteti

Psixologiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Bugunda zamonaviy ta'limda eng yangi uslublarda, innovatsion texnika va texnologiyalardan foydalangan holda, ilmiy tadqiqot metodlarini qo'llash orqali dars jarayonlarini qiziqarli, tushunarli tartibda olib borish yo'lga qo'yilmoqda. Pedogok qanchalik mohirlik ila metodlarni qo'llashi, talaba va yoshlarni bilim olishga jalb qila olshi, kelajakda yurtimizdan ilmiy, bilimli kadrlarni chiqishi, o'z kasbining fidokorlari ko'payishi, hamda yurtimizda innovatsion, kreativ o'zgarishlar ro'y berishidan darakdi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, kreativ, pegogok, metod, ilmiy, tadqiqot, ta'lim.

Zamonaviy pedagogika nazariyasida nimani o'rganish va o'rgatish, kimniva qanday tarbiyalash lozim degan masalalar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmasdan o'zaro uzviy bog'liqlikda yechimini kutmoqda. Pedagogika fani o'z mazmun mohiyatini boyitishda yangilashda mavjud pedagogik hodisa va nazariyalarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o'rganadi.

Sh. Abdullayeva.